

O'ZBEK-INGLIZ TILLARIDAGI MATNLARDA SHAXS RUHIY XOLAT IFODALOVCHI BIRLIKLARNING MAVZUVIY GURUHLANISHI

Toshboyeva Zebiniso

Denov tadvirkorlik va pedagogika instituti 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7885013>

Annotatsiya: Maqolada ikki tilda mavjud matnlarda shaxs ruhiy holatini ifodalovchi birliklar, xalqning madaniy-milliy o'zini anglash translyatsiyasi, madaniy-milliy etalonlar, stereotiplar, mifologemalar, inson ma'naviy hayotining markaziga, tuyg'ular, kayfiyatlar, fikrlar, iroda, diniy e'tiqodlar xususiyatlari xususida gap boradi.

Kalit so'z: matnlarda shaxs ruhiy holati, etalonlar, stereotiplar, mifologemalar, tuyg'ular, kayfiyatlar, fikrlar, iroda, diniy e'tiqodlar, lingvomadaniy mazmun.

Shunday qilib, ko'rib chiqilayotgan ikki tilda mavjud matnlarda shaxs ruhiy holatini ifodalovchi birliklarning lug'aviy definitsiyalarini qo'shadigan bo'lsak, quyidagi tuzilish hosil bo'ladi:

- 1) Qon aylanish markaziy a'zosi (har ikkala tilda ham); tuyg'ular, hayajonlar, kayfiyatlar hissiyotlar to'planish belgisi (har ikkala tilda ham);
- 2) Tafakkur, ko'chuvchan tafakkur nimaningdir bosh qismi, markaz, yurak shakliga ega barcha tasvirlar, obyektlar (ingliz va o'zbek tillarida);
- 3) Sevgan insonga murojaat (ingliz va o'zbek tillarida).

Biroq, definitsiyaning bunday tuzilishi "heart"/"yurak" konseptining to'liq manzarasini bermaydi. V.N.Teliyaga ergashib, biz ham ta'kidlaymizki, xalqning madaniy-milliy o'zini anglash translyatsiyasi va identifikatsiyasida muhim rol ni til bajaradi. Muallifning fikricha, tilda, unga harakterli obrazlar, etalonlar, stereotiplar, mifologiya, ramzlar va shu kabilarda xalq dunyoqarashni va uni tushunishi, madaniy an'analar konteksida qayd qilinadi. Aynan shu mutanosiblik til nafaqat reallikni o'zining sodda shakldagi ko'rinishda aks ettiradi, balki uning fragmentlariga olamning lisoniy manzarasi qadriyatlari nuqtaiy nazaridan munosabatini ham namoyon qilish bilan birga avloddan avlodga uzatiluvchi madaniy milliy qurilmalari va til sohibi bo'lgan xalqning urf-odatlarini ko'rsatadi.

Bu translyatsiyada asosiy rol ni muallif, xususan, tilning frazeologik tarkibiga beradi, chunki uning birliklarining obrazli mazmunida madaniy milliy dunyoqarash jamlangan. Lekin, faqat bu munosabatning o'zining obrazli mazmunida "tom ma'noda" namoyon bo'lgan frazeologizmlarni kategoriyalar, konseptlar, mifologemalar, stereotiplar va milliy madaniyat etalonlari hamda ularning bu moddiy, ijtimoiy yoki ma'naviy madaniyatda obrazning o'zining asl ma'no mohiyati madaniy makondagi interpretatsiyalarida ochiladi.

V.N.Teliya tilning madaniy-milliy o'zlikni anglashiga "bog'lanishi" "ona suti bilan birga" kirgan deb hisoblaydi. U qachon o'zlashtiriladi va qachon ishlab chiqariladi – ongli hamda ongsiz ravishda til birliklari tashuvchi barcha ma'lumot, shu jumladan, til faktlari tahlilida uning u yoki bu mazmuni chuqurligini til vakillari tomonidan anglangan madaniy-milliy konnatatsiya ko'rinishida namoyon etilishi mumkin. Shu munosabat bilan muallif tilda aynan shu ifodalar mustahkamlanadi va frazeologiyalashadi deb qayd qiladiki, ular madaniy-milliy etalonlar, stereotiplar, mifologemalar va boshqalar bilan assotsiyalanadi hamda ularning nutqda qo'llashda u yoki bu lingvomadaniy mazmundagi mentalitetga xoslikni keltirib chiqaradi.

"Heart"/"yurak" konseptining lingvokulturologik tahlili mazkur ishda bizni faqatgina tilning frazeologik tarkibi doiralaridan chetga chiqaradi. Konsept tushunchasining ahamiyati

shundaki, konsept umumiy semantik korrelyatsiyalar asosidan iborat. U alohida kontekstlar bilan cheklanishi kerak emas.

“Heart”/“yurak” konseptli his-hayojon leksikasining semantik guruhlarini.

Yurakning muhimligi uni inson ma’naviy hayotining markaziga, tuyg’ular, kayfiyatlar, fikrlar, iroda, diniy e’tiqodlar omboriga aylantiradi.

Har ikkala dunyoning til manzarasida ‘heart’/“yurak” eng avvalo his-tuyg’ular ramzi, his-tuyg’ular ombori hisoblanadi. Bazaviy tuyg’ularga “qurquv”, “qahr”, “quvonch-lazzat”, “dard”, “qayg’u” kiradi.

“Qo’rquv” ma’noli semantik guruh:

- “sarosimaga tushish”, “o’z-o’zi ustidan nazoratni yo’qotish”
- qo’rquv, dahshat;
- sarosima;
- nimadandir qo’rqib qolish;
- qo’rquvga tushish;
- qo’rquv, dahshat;
- kimnidir qo’rqitish; qo’rquv yuborish (ayn.: yurakni so’g’irib olish); tushgan yurak bilan-qo’rqan holda; qo’rquv dahshat sezgan holda;

One’s heart leaped into one’s mouth (or throat) – qo’rqish, juda qo’rqish; yuragi tovoniga tushib ketdi (ayn.: yuragi og’ziga sakradi (yoki tomog’iga tiqildi));

Heart leap out of his mouth, shuningdek, make somebody’s heart leap out of his mouth – o’ta qo’rqib ketish; yuragi tovoniga tushib ketdi (ayn.: yuragi halqumidan chiqib ketdi).

Keltirilgan misollarga biz qo’rquv “oqibat”larini kuzatamiz. Har ikkala tilda, konseptning ichki shakli ko’rsatilayotganidek, qo’rquv yurakni “buzadi”, uni joyidan siljitadi, bu esa quyidagi oqibatlarni keltirib chiqaradi:

- -yurak yo’qoladi, ot yugurmaydi.
- “I mean it”, Sally stuck to her guns through her heart sank, “I won’t have his sort of business transacted in my house” (K. Prichard “The Golden Miles”. Ch I
- Men aynan shuni aytmoqchiman, garchi Sallining yuragi tovoniga tushib ketgan bo’lsa-da (ayn.: yurak tushdi), lekin Salli qat’iy turardi. – Men bunga o’xshash ishlar mening uyimda sodir etilishiga chidolmayman.

Natijalar esa umuman kutilmagan bo’lishi mumkin: kuchdan batamom qolishdan tortib tasodifiy mobilizatsiyagacha. Ingliz tilidagi matnlarda qo’rquv ‘heart’/“yurak” harakatlari kauzatori hisoblanadi – u qo’rquvdan “sakraydi”.

Kayf(i) uchdi kimning – kayf(i)ni uchirmoq kim yoki nima kimning. Qattiq cho’chish bilan qo’rqmoq. Varianti: kapalagi uchdi – kapalag(i)ni uchirmoq; O’xshashi: yuragini yormoq – yuragi yorildi; o’taka(si)ni yormoq –o’taka(si) yorildi; labiga uchuq toshadi” esi chiqib ketdi – es(i)ni chiqarib yubormoq.

Jon-pon(i)ni chiqarib yubormoq I. Q. jon-pon(i) chiqib ketdi I.

Jon-ponini chiqarib yubormoq II. Q. joni chiqdi II.

Bahr(i)ni ochmoq nima kimning yoki kim kimning nima bilan – bahr(i) ochildi kimning (nimada). Kayfiyatini yaxshilamoq. Varianti: bahr(i)ni ochmoq- bahri dil(i) ochildi; dil(i) ochildi. Sinonimi: dimog’(i) chog’ bo’ldi – dimog’(i)ni chog’ qilmoq; kayf(i) chog’ bo’ldi- kayf(i)ni chog’ qilmoq. O’xshashi: ko’ngl(i)ni ochmoq 1 – ko’ngl(i) ochildi.

Ayni ma'noda orom "yurak"ka "yengillik" olib keladi, unga ta'sir o'tkazayotgan xavotir va hayajonlarni oladi. Shu fakt o'ziga diqqatni tortadiki, yurakni tinchlantirish, shuningdek ruhiy xotirjamlikni ham keltiradi, ya'ni yurak va ruh o'zaro chambarchas bog'liq, bu, ayniqsa, o'zbek tilli dunyo manzarasiga xos.

Ingliz tilda tinchlanish yurakka shunga o'xshash holatda ta'sir ko'rsatadi:

Set one's heart at rest – tinchlanish, hayajonlanmaslik, xavotir olmaslik (ayn.: yurakni oromga berish).

VIII. "Shafqat" ma'noli semantik guruh

O'zbek tilida "yurak", "shafqat" konsepti tarkibiga kiradi:

- rahm marhamat; shafqat
- rahmdillik bilan (ayn.: bexavotir ko'ngil bilan);
- kimnidir chin yurakdan ayash; yurak simillayapti (yurak kim uchundir og'riyapti);
- kimgadir achinish (ayn.: yurak qurimoqda).

"Shafqat" ko'p kuch oladi, u yurakni "quritadi", uni og'rishga majbur qiladi. Go'yoki odam birovning dardini oladi. Rahmdil bo'lish – og'ir "yuk".

O'zbek tilida 'heart'/"yurak" konseptining semantik maydoniga, shuningdek "shafqat" konsepti ham kiradi:

- ko'mak berishga tayyorlik, shafkat tufayli kechirish, shuningdek yordamining o'zi;

Yurag(i) achidi kimning. 1. Kimga. Ayb kuyinmoq. Varianti: yurag(i) achishdi. Sinonimi: ach(i) achidi 1; jon(i) achi(y)di 1. O'xshashi: rahm(i)ni keltirmoq.

Ko'ngl(i) yumshadi kimning-ko'ngl(i)ni yumshatmoq kim kimning. Rahimdilligi uyg'ondi.

Ko'ngl(i) yumshoq kimning – yumshoq ko'ngil kim. Ko'ngilchan, rahimdil. Varianti: yumshoq ko'ngil [ekan]lig(i) kimning. Sinonimi: ko'ngl(i) bo'sh. Antonimi: ko'ngl(i) qattiq – qattiq ko'ngil.

Ko'ngl(i)ga qaramoq kim kimning, ba'zan (o'zining). Ra'yiga yon bosmoq.

Ko'ngl(i) bo'sh kimning. Ko'ngilchan, rahimdil. Varianti: ko'ngl(i)ni bo'sh [ekan]ligi. Sinonimi: ko'ngl(i) yumshoq – yumshoq ko'ngil. Antonimi: ko'ngl(i) qattiq – qattiq ko'ngil.

Ko'z(i) qiymadi kimning.1. kimni yoki nimani nima qilishga. Ko'ngilchanlik tufayli botina olmaslik. Varianti: ko'z(i) qiyadi; ko'z qiymadi kimning yoki nimani nima qilishga; Sinonimi: ko'ngl(i) bo'lmadi; ko'ngl(i) bormadi.

2. kimni. Rahimdillik bilan ayagani tufayli tashlab ketolmaslik. Varianti: ko'z(i) qiyasa; ko'z(i) qiyib; ko'z(i) qiyadi; ko'z qiymaydigan; ko'z qiymas.

3. nimani. Ko'ngil tortadigan narsasidan voz kecha olmaslik. Varianti: ko'z(i) qiyarda – qiyamay.

Ko'z(i) qiymadi kimning. 1. kimni yoki nimani nima qilishga. Ko'ngilchanlik tufayli botina olmaslik.

Jon(i) quydi kimning nimaga – jon kuydirmoq kim nimaga yoki kimga. Ruhan kuchli bezovtalangani holda g'amxo'r bo'lmoq. Varianti: jon kuydirib 1 nimaga yoki kimga.

Boshqacha qilib aytganda, boshqalarga ko'mak berish uchun "shafqatli", "mehribon" yurakka ega bo'lish kerak. O'zbek tilidagi ma'nolar bilan korrelyalanayotgan ma'no quyidagi konseptlarga ega:

Rahmdillik – o'zgalar dardiga hamdard bo'lish;

Rahmdillik qilish, rahmdillik, ko'ngli bo'shlik.

Shunday qilib, rahmdil, rahmdil yurakka ega bo'lish yetarli emas, yana boshqalar uchun chin dildan qayg'urish, achinish kerak.

Ingliz tilida 'heart'/'yurak' konseptining bunday ma'nosi kuzatilmagan.

"Tuyg'u" ma'noli semantik guruh

O'zbek tilida "tuyg'u" konseptining o'zi 'heart'/'yurak' komponentiga ega:

1. tuyg'u;
2. sevgi;

Tuyg'ular yoqimli bo'lish mumkin:

- yoqimli
- xush
- iliqlilik, ko'ngillik;
- ko'ngilli, muloyim, iliq.

Yoki yoqimsiz:

- yoqimsiz, noxush.

Lekin baribir tuyg'u, umuman olganda, bu yurakda yotgan narsa:

Ko'ngilda sir tutilgan his, orzu; muhabbat.

Boshqacha qilib aytganda, so'zning kichik shakli to'g'ridan to'g'ri yurak ichida joylashgan tuyg'uga aloqador, aynan "yurak", "his" qiladi, aynan yurak "his qiladi".

- kim, nimadir haqida qayg'urish; nimadir his qilish (ayn.: yurakda o'syapti);
- yurakning to'riga tegish (ayn.: yurakka kirish);
- dildan qayg'urish (ayn.: dildan bilish);
- ko'ngil uchun yetarli (ayn.: yurakdan yulib olish);
- xavotirga tutish; xavotirlanish (ayn.: yurak tutilib qoldi, "adashish");
- befarq bo'lish (ayn.: ko'ngil qoldi);
- yurakdan (ayn.: yurak chalg'ib ketdi);
- qabul qilish, nimanidir chin dildan o'ziga olish (ayn.: yurakdan o'tish);
- kimgadir yurakni ochish, ko'ngilni ochish;

Shunday qilib, tuyg'ular yurakda "o'sadi", unga "kiradi", uni "cho'ktiradi", "unda qilinadilar", "u ularni biladi", "undan o'tadi", uni adashishga majbur qiladilar. Aynan tuyg'ularning "ich"da joylashishi ularni ko'ngilda sir saqlashga olib keladi.

- Tuyg'ularing haqida sening kinoyalaringni tushunmaydigan odamga aytma.

Faqat haqiqiy tuyg'ular shonli ishlar uchun asos bo'ladi:

- Eng to'g'ri ish – bu haqqoniy hislar.
- Mening yuragimdagi tuyg'ular uchun mening qilichim javob bersin.

Bunda tuyg'ular turli xil tabiatga ega bo'lishi mumkin, har bir so'z o'z ma'nosiga ega: – his, sevgi; – ko'ngilda sir tutilgan tuyg'u, orzu; muhabbat, ya'ni alohida, ehtiyotkorona muhabbatni talab qiluvchi nisbatan keng, nozik qatlam.

O'zbek tilida hislar "yurak"ni to'ldiradi:

Yurak kengligidan (ko'ngil) – hislar ko'pligidan;

Ko'ngilga erk berish – tuyg'ularga izn berish;

Yurakka yaqin olish – 1) nimanidir o'ta hissiyot bilan qabul qilish, nimagadir katta e'tibor berish; 2) nimagadir katta qiziqish bilan bilan qarash;

open (uncouver) one's heart to smb (t.j. pour out one's heart to smb)- o'z ko'ngilini ochish, hislarini to'kib solish (ayn.: o'z ko'ngilini ochish, to'kib solish);

one's heart warms towards her (him...) – men (u...) dildan hamdardlik bildiradi (unga) (ayn.: kimning yuragi kim uchundir iliqlikka to'lad);

move (stir yoki touch) smb's heart – kimnidir ta'sirlantirish, kimningdir ko'ngliga tegish;

he at smb's heart (He heavy), (t.j. weigh upon smb's heart ili upon the heart of smb's.) – yurakda yotgan tosh bilan dilni xiralashtirish (ayn.: yurakka ta'sir o'tkazish);

lay one's heart bare – bor ko'nglini ochish (ayn.: yurakni yalang'ochlash);

have smth at heart – yurakka yaqin olish (ayn.: yurak atrofida nimadir bo'lishi);

have a soft (warm) spot in one's heart for smb – hayajon sezish, kimgadir hissiy zaiflik sezish; kimgadir iliq tuyg'u tuyish; (dildan) hamdardlik bildirish, kimgadir hamdardlik bilan qarash (ayn.: kim uchundir yurakda yumshoq (iliq) dog' mavjud bo'lishi);

come (go) home to smb's heart, ya'ni go to smb's heart – ko'ngil tubigacha tegish; naq yurakka yetib borish; kimningdir ko'nglidan aks sado olish (ayn.: kimningdir yurak uyigacha yetib borish);

bring home to smb's heart – ko'ngil tubigacha ta'sir etish, chuqur his qilishiga imkon berish; yurak tubiga tegish; yurakkacha yetib borish; kimningdir ko'nglidan aks sado olish;

in the fullness of one's heart – yurak ko'ngil to'qligidan, hislar haddan ziyod ko'pligidan;

"What boastful father in the fullness of his heart ever related such wonder of his infant as kit never wearied of telling Barbara in the evening time, concerning little Jacob?" – Qaysi ota faxrdan hayajonlanib, o'zining ajoyib o'g'li haqida shunday mu'jizalarni gapirishi mumkin. Kit kichik Jeykob haqida oqshomlari Barbaraga so'zlab berishdan charchamasdi? .

Hislar "yurak"ni qizdiradi, tuyg'ular qanchalik qizdirsa, yurak "harorati" shunchalik ko'tariladi. Har ikkala tilda ham "yurak"ni ochish hislarni to'kib solish demakdir.

Ingliz tilidagi "heart" o'zbek tilida "ko'ngil" deb tarjima qilinishi mutanosibligi diqqatni tortadi. Bu bizning o'zbek tilidagi "ko'ngil" ingliz tilidagi 'heart'/"yurak" bajargan vazifani bajarishi haqida fikrimizni tasdiqlaydi.

Ingliz tilli dunyoning manzarasi "yurak"ni uy deb tasvirlaydi. Uy – bu o'zida jamlagan barcha hossalari bilan muqaddas, doim uyga qaytadilar. Yurak uyiga yetib borish – demak odam markaziga, uning mohiyatiga yetib borishdir..

References:

1. Teliya V.N. Тіры языковых значеніі. Svyazannoye znachenіye slova v yazыke. – Moskva: Nauka, 1981. –S.231.
2. Teliya V.N. Тіры языковых значеніі. Svyazannoye znachenіye slova v yazыke. – Moskva: Nauka, 1981. –C. 233.
3. Sh. Diskens. "The old Curiosity Shop". Shapter:.XXXVIII. –P.25.